

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

№32 (67249)
2019-yil 12-avgust

Tong yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

HAFTA XUSHXABARLARI

yoxud QAHRAMONLARI

Kuzatib borayotgan bo'lsangiz, deyarli har haftada yurtimizning iqtidorli o'quvchilari turli musobaqa va bellashuvlarda katta yutuqlarni qo'lga kiritib, Vatanimiz sharafini munosib himoya qilishmoqda.

Davomi 2-betda

Bolajonlar, xabaringiz bor, joriy yilning 1-6-avgust kunlari Janubiy Koreya davlatida o'tkazilgan «International Yoth Robot Association» xalqaro tanlovida O'zbekiston terma jamoasida yosh ixtirochilar qatnashdilar.



HAFTA XUSHXABARLARI

yoxud QAHRAMONLARI



Boshi 1-betda

24 ta davlatdan kelgan 700 nafar yoshlar o'rtasida o'tkazilgan ushbu tanlovda hamyurtlarimiz bayrog'imizni baland ko'tarishga muvaffaq bo'ldilar. Iqtidorli yoshlarimiz robototexnika bo'yicha Rossiyada 2020-yilda o'tkaziladigan yana bir tanlovda qatnashish huquqini qo'lga kiritishdi.

Biz tanlovda faxrli ishtirok etgan samarqandlik ixtirochi o'quvchilar bilan suhbatlashib, ularning taassurotlari haqida o'rtoqlashdik:



— Men ushbu tanlovda «Qutqaruvchi robot» modeli bilan qatnashdim, — deydi Samarqand shahridagi 30-umumta'lim maktabi o'quvchisi Fozilbek Anvarov. — Robotning afzalligi shundaki, u suvda cho'kayotgan odamni aniqlab, tezda suzib boradi va uni halokatdan qutqaradi, — deydi iqtidorli tengdoshingiz.

— Men ham turli buyumlar yasashga juda qiziqardim, — deydi Samarqand viloyati, Tayloq tumanidagi 21-umumta'lim maktabi o'quvchisi Shukurbek Ro'zimurodov. — Bu qiziqishlarim meni viloyat «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazining robototexnika to'garagiga yetaklab keldi. Bu yerda ustozim Eduard Ashotovich boshchiligida ko'plab modellar ustida ishladik. Men yasagan model zilzila bo'lgan joylarda vayronalar ostida qolib ketgan odamlarni qutqaruvchi robot-mashina hisoblanadi. Koreyadan olgan taassurotlarim esa juda ko'p. Fursatdan foydalanib, avvalo, Prezidentimizga, markazimiz rahbari Nargiza opa Qobilovaga hamda maktabimiz direktori Abdurasul Oripovga o'z minnatdorligimni bildiraman.

Safardan olam-alam taassurotlar bilan qaytgan tengdoshlaringizning bizlarga aytar gaplari hali ko'p. Mana shunday iqtidorli o'quvchilar safi kengayib, O'zbekistonimiz bayrog'i yer kurrasi bo'ylab yanada yuqoriroq hilpirayversin.

O. TURSUNBOYEVA,
S. QODIROVA




O'tgan hafta davomida o'zbekistonlik o'quvchilar Janubiy Afrika Respublikasining Durban shahrida o'tkazilgan Xalqaro matematika musobaqasida 14 ta medalga sazovor bo'lishdi. Musobaqada Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur, Gonkong, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya kabi 41 ta davlatdan kelgan 500 nafardan ortiq yosh matematiklar bellashishgan edi. Musobaqada yagona oltin medalni qo'lga kiritgan tengdoshingizning safar va g'oliblik taassurotlari sizni ham qiziqtirayotgan bo'lsa, ajabmas.

Anvarjon RAHMATOV, Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi 1-DIUMining 7-sinf o'quvchisi:

— Aslini aytsam, dadam iqtisodchi bo'lganliklari sabab boshlang'ich sinfdanoq matematika faniga qiziqishim baland. Ularning hisob-kitobga ustaliklariga havas qilardim. Keyinchalik ustozlarim Jahongir Mirzaqulov va Ro'zimurodov Ro'zimurodov meni bu fanning sehrli olami tomon yetaklashdi. Ilk yutug'im, albatta, «Bilimlar bellashuvi» va fan olimpiadalarida bo'lgan. Ammo, bunday katta muvaffaqiyatga erishishim kutilmagan baxt, omad. Men musobaqada oltin medalga erishganimdan bir quvonsam, dunyo mamlakatlariga sayohat qilganimdan ikki hissa baxtiyor



edim. Janubiy Afrikadagi hayvonot bog'i, okean bo'yiga sayohat deysizmi, Durban shahrining ko'zga ko'ringan maskanlari menda katta taassurot qoldirdi. Chindan ham hayotda bilimli insonga har doim hurmat-u e'tibor katta ekanini his etdim. Ustozlarimiz-u, ota-onamiz aytganlaridek, bilim olmog'-u, mehnat qilmoqning mevasi ana shunday shirin bo'lar ekan. Aslida, so'nggi so'z o'rmda biz yoshlar yurtimiz nomini dunyoga tanitish orzusida ekanini aytamiz. Men bu orzumga qisman erishgan bo'lsam-da, endilikda yurtimiz rivojiga hissa qo'shishdek maqsadimga yetishishga intilaman.



Tonggi porloq yulduzsan!

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasing tinib-tinchimas xodimlari!

Men o'z o'quvchilarim bilan Sizlarni gazetaning 90 yilligi bilan qutlab, ushbu dil izhorimni yo'llamoqdaman.

Bu yil «Tong yulduzi» gazetasi mening va o'quvchilarim hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Sahifalarda o'quvchilarimning ishlari bir necha bor chop etildi. Ularning quvonchlari mening quvonchim, yutuqlari esa mening ham yutug'imdir. Ustoz uchun bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak.

Aziz ijodkor ustozlar! Gazetani rang-barang va purma'no qilib bolajonlarga yetkazishda charchamang!

Men ishonamanki, kelgusi o'quv yilida obunachilaringiz bundan-da ortadi. Biz ham maktab o'quvchilari bilan yanada faol bo'lib, marrani baland olamiz!

Bolalikning ruhini,
Olib kelgan yulduzsan!
Tonggi porloq bu yurtda —
Ma'rifatga ildizsan!

Sahifangda kamalak,
Ming o'y, xayol terilgan.
Ayt, qay yurt bolalari —
Shu el kabi sevingan?

Madina BAXSHILLOYEVA,
Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 23-DIUM
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, «Yangi asr
avlodi» to'garagi rahbari

ULKAN BAXT ATO ETDING

Ilk bora «Tong yulduzi»da she'rim chiqqanida, mendan ko'ra ota-onamning quvonchlari cheksiz edi. Tushundimki, ularni xursand qilish — dunyodagi eng katta baxt ekan. Sen menga ana shunday ulkan Baxtni ato etgansan.

Sarvinoz
KOMILOVA

MENGA ILHOM BERADI

Gazetani qo'lga olishim bilan, undagi rasmlar tanloviga e'tibor qarataman. Bilamanki, menga ilhom beruvchi chizgilar «Tong yulduzi»ning har sonida topiladi. Rasmlar tanlovini yanada ko'paytirishingizni xohlardim. Axir hamma narsaning ilhombaxshi Tabiat emasmi?!

Shahrizoda
IBODOVA

YANGI G'OYA OLAMAN

Ibratli hikoyalarni o'qish, til o'rganishga bo'lgan qiziqishim o'zgacha. Gazetaning har bir sonida ularni o'qib, o'zim uchun yangi g'oyalar olaman. Gazetaning tinib-tinchimas, jonkuyar xodimlarini ham bugungi bayram bilan qutlayman. «Tong yulduzi» O'zbekistonimizdagi «yil» etgan uchun ijodkorlarni ko'ra oladigan sevimli gazetamdir.

Umida
SOBIROVA

SENI KO'RIB KO'ZIM QUVNAYDI

Gazeta kundan-kun o'zgacha qiyofa kasb etmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda biz yoshlarga yaratib berilayotgan sharoitlar, Yurtboshimizning 5 ta muhim tashabbuslari ostida amalga oshirilayotgan ishlarni ko'rib, ko'zim quvnaydi. Men ham «Yosh kitobxon» ko'rik-tanlovi g'olibi bo'lib, hamma havas qiladigan farzand bo'lishni xohlayman. Sen bilan birga bo'lib, turli tanlovlar, «Bilimlar bellashuvi»da g'olib bo'ldim. Bu niyatimga ham, albatta, erishaman! Menga ilhom berib, qanot bo'lganing uchun senga tashakkur, «Tong yulduzi»!

Jasmina
RASHIDOVA

BIZ UCHUN QADRLISAN

Har hafta sening kelishingni to'garak a'zolari bilan orziqib kutamiz. Xuddi har bir tongni kutgan kabi. Ayniqsa, men. Chunki, har gal gazeta kelishi bilan, birinchi bo'lib ustozim Madina Baxshilloeva erinmay o'qib beradilar. Kerakli maslahatlar berib, sendagi tanlovlarni tushuntiradilar. Biz darsdan keyin seni yana «tortishib» o'qiyamiz. Fikr almashamiz! Biz uchun qadrlisan, «Tong yulduzi»!

Nazir
HAMROYEV

«Yangi asr
avlodi»
to'garagi
faoliyatidan

Qalbimizga aylanding

«Tong yulduzi» — sen bizning,
Qalbimizga aylanding.
Quvonch-u, tashvishimiz,
Dardimizga aylanding.

Ijod qilib har kuni,
Tolmay seni o'qishdan.

Yulduz bo'lib boryapmiz —
Shu yurtning tashvishida!

Qalamim qolmas to'xtab,
Bolalarning yuzisan.
90 yoshing muborak,
A'lochilar so'zisan!

Madina TOSHBOLTAYEVA

ENG YAXSHI BUVIJON



Egniga bejirim fartuk taqib olgan jajji Gulnora o'zini xuddi bog'bondek tutib, hovlida ishlayotganini ko'rgan buvisi:

– Hoy, Gulnora qizim, bog'da nima qilyapsan? – deya so'rab qoldi. Gulnora mehribonlik bilan buvisiga:

– Buvi, shu yoshda siz o't yulasizmi? Oyim bilan dadam kun bo'yi ishda. Siz esa ovqat tayyorlab, kir yuvasiz, charchaysiz. Sizga yordamlashmoqchiman.

Buvi bu gaplardan xursand bo'ldi-yu, ammo Gulnoraga indamadi, birozdan so'ng o't yulayotgan nabirasiga: «Mana bu teshacha bilan o'tlarni tezroq yulasan. O'tlardan tozalangan joyga gullar ekamiz», dedi.

– Yo'q, qo'limda tezroq yulaman, – e'tiroz bildirdi nabira.

– Gulzorimizga kapalaklar keladimi?

– Albatta, keladi, – dedi buvisi va gul urug'ni yerga qo'ydi. Gulnora urug' sochish uchun yerni yumshatmoqchi, urug' sochmoqchi, ochilgan chaman-chaman gullarni esa sovg'a qilishni o'ylardi. Ammo ozgina o't yulmasdan, gul parvarishlash oson ish emasligini tushundi va supachada xayol surib uxlab qoldi.

– Gulnora qizim, tura qol. O'tlarni yulib bo'ldingmi? – Buvisining yoqimli ovozidan Gulnora uyg'onib qarasa, yumshatilgan yerga urug' sepilmay qolibdi. Buvi jilmayib:

– Ko'rdingmi, hamma ishning o'z ustasi bo'ladi. Kattalar gapiga quloq solish kerak. Hali sen yoshsan. Shuning uchun gullarni birga ekaylik, – degandim.

– Mening buvim dunyodagi eng yaxshi buvi! Endi doim aytganingizni bajaraman, – deya buvisining bo'ynidan quchoqlab oldi Gulnora.

Odina A'ZAMQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
19-umumta'lim maktabi o'quvchisi

MASLAHAT




– Aka, nima qilyapsiz? – so'radi Sherzoddan kichkina singlisi.
– Rasm chizyapman.
– Nimaning rasmini chizyapsiz?
– Qush uyasini.
– Ertaga rasm darsingiz bormi?
– Ha. Faqat xalal bermay tur.
– Men sizga xalal emas, maslahat bermoqchiman. Yaxshisi, shu rasmingizni kompyuterdagi



«Paint» dasturida chizing. Keyin qog'ozga chiqarib, ustidan bo'yoq bilan bo'yab qo'ysangiz, aniq besh baho olasiz! O'zingizni qiynab o'tirmang. Vaqtingiz ketadi deyman-da.
– Qanday bo'larkin?
– Qandek bo'ladi!
Ertasi kuni darsda Sherzodning «chizgan» rasmi sinfdoshlari tomonidan eng chiroyli chizilgan rasm, deb topildi... Ammo, rasm kompyuterda chizilganini payqagan o'qituvchisi unga bu ishini takrorlamaslikni tayinladi.

Iroda XOLBEKOVA,
Jizzax viloyati, H.Olimjon va Zulfiya nomidagi
ona tili va adabiyot fanlari chuqurtashtirib o'rgatishga
ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'quvchisi

JONAJON, SEVIMLI MASKAN



Marjona allamahalgacha o'tirib to'qigan buyumini avaylab sumkasiga soldi-da, yengil tortdi. Axir uni ertaga o'qituvchisi Umida opa Rasulovaga ko'rsatishi, ustozidan olqish olishi va to'garakdagi boshqa qizlarning hayratini oshirishi kerak. Ertalab u sevimli maskaniga yo'l olarkan, sumkasidagi to'qilgan sharfga qayta-qayta razm solib qo'yardi. «Ishqilib, kamchiligi bo'lmasin-da, ustoz har doimgidek, «Barakalla, qizim», deb maqtasin»...

Marjona Ismoilova Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazi qoshida tashkil etilgan

to'qish to'garagiga qatnaydi. U yerda faoliyat yuritayotgan to'garaklarga tumandagi turli maktablardan o'quvchilar keladi. Markaz binosi ularning g'ala-g'ovuri-yu, kulgilari bilan to'ladi.

Ayni damda ushbu markaz qoshidagi 30 ta to'garakka 725 nafar o'quvchilar jalb qilingan. Xo'sh, ularning ta'til kunlari qanday o'tyapti? Bu haqda markaz direktori Bahodir aka Yorboev shunday dedi:

–Ta'til davomida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, bolalarning ma'naviy olamini boyitish, iqtidori va iste'dodini rivojlantirish bizning asosiy vazifamizdir. Ayni shu maqsadni ko'zlab, ta'til avvalida «Yoz – 2019» Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, viloyatimizdagi 23-, 35-, 36- umumta'lim maktablari bilan hamkorlikda ish olib bormoqdami. Ushbu maktablarda tashkil etilgan kunduzgi oromgohlarda hordiq chiqarayotgan o'quvchilarga markazimiz to'garagi o'qituvchilari hunar o'rgatib, sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratishmoqda. O'quvchilar orasida turli ko'rik-tanlovlar, musobaqalar uyushtirilyapti. Ayniqsa, «Kim epchil-u kim



chaqon?», «Erkin mavzuda rangli qog'ozlardan applikasiya yasash», «Imkon shou», «Kitob – beminat ustoz», «To'quvchi qiz» singari qator ko'rik-tanlovlar o'quvchilarning olgan bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdi.

Markazimizda respublika miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda qatnashgan o'quvchilarimiz bisyor. Jumladan, «Ijodkor bolalar» respublika festival-tanlovining viloyat bosqichida G'olib O'ktamov avtomodel yo'nalishida faol ishtirok etdi, yog'och o'ymakorligi yo'nalishida esa Asilbek Qarshiyev faxrli o'ringa sazovor bo'ldi.

To'quvchi qiz Marjona ham navbatdagi tanlovda ishtirok etish uchun astoydil harakat qilmoqda. To'garak rahbari Umida opaning esa shogirdlaridan umidi katta.

Ozoda TURSUNBOYEVA



HUQUQINGNI BILGIN, BOLAJON!

tashqari, «har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalanih huquqiga ega».

Shu kabi 32 moddadan iborat qonunning boshqa moddalari bilan ham tanishib chiqsangiz, foydadan holi bo'lmaydi. Zero, shu yil Yurtboshimizning «Bola huquqlarining kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ham e'lon qilingan edi. Kuni kecha mazkur qarorning ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida brifing ham o'tkazildi. Unda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov ishtirok etdi. Shu o'rinda eslatib o'tmoqchimizki, yaqindagina markaz direktori Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 34-umumta'lim maktabida mehmon bo'lganlarida, o'z fikri va so'zini aytish huquqidan foydalangan, ziyrak va dadil o'quvchi qiz Zilola Shomurodova Yurtboshimizga yozgan she'rini Akmal Saidovga taqdim qilgan edi. Gazetamizda e'lon qilganimizday, shoira qizning maktubi Prezidentimizga yetkazilib, unga tez kunda javob xati ham keldi. Ko'rdingizmi, bolajonlar, yurtimizda har bir bolaning huquqlari ta'minlanishini shaxsan Yurtboshimiz qo'llab-quvvatlaydilar. Buning uchun sizdan faqat bilim, tashabbuskorlik va harakat talab qilinadi, xolos.



Aziz o'quvchim! Siz hamisha ota-onangiz g'amxo'rligi va ona Vatanimiz himoyasida ekaningizni dildan his qilib yashayotgan baxtli avlodsiz. Shunday bo'lsa-da, siz o'z haq-huquqlaringizni bilib olishingiz, ulardan to'g'ri va unumli foydalanishingiz lozim. Qani ayting-chi, Siz «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini hech o'qib ko'rganmisiz? Bugun biz sizni shu Qonunning mazmun-mohiyati bilan qisqacha tanishtirishni maqsad qildik.

2007-yilda qabul qilingan mazkur qonunda ko'rsatilganidek, bolaning o'z fikrini ifoda etish, axborot olish, xususiy mulkka bo'lgan huquqlari kafolatlangan. Shuningdek, qonunning 20-moddasida – Bolaning mehnat qilish huquqi ham e'tirof etilib, har bir bola kasbini erkin tanlash, adolati mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega ekani va ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yilishi belgilangan. Bundan

Sayyora QODIROVA

Let's learn English

Ingliz tilini o'rganamiz

Lesson 32

Word Search Puzzle

E	I	V	C	I	A	G	X	M	I	R	R	O	R	B	W
S	Q	S	S	U	H	C	U	P	B	O	A	R	D	Q	X
C	Y	E	T	E	P	J	E	D	U	W	A	C	K	I	J
O	A	D	O	Q	F	Y	T	A	B	L	E	A	E	E	B
U	R	S	O	K	I	T	D	O	I	E	O	X	Q	Y	O
C	M	Q	L	D	R	S	D	Z	W	Y	E	D	K	F	O
H	C	H	Z	K	E	P	A	S	J	V	V	B	E	D	K
L	H	S	C	R	P	C	C	O	E	N	M	E	Y	P	C
D	A	B	H	K	I	L	T	F	O	R	V	Q	G	O	A
X	I	Q	A	R	A	E	L	A	G	H	B	C	T	G	S
B	R	N	I	B	C	X	N	Z	X	I	S	L	G	M	E
W	O	T	R	J	E	S	I	D	E	B	O	A	R	D	N


Armchair
Bed
Bookcase
Chair

Couch
Cupboard
Fireplace
Mirror

Sideboard
Sofa
Stool
Table

Riddles

I don't know
the ABC
But I am
writing as you
see.
(uod)



What has many keys
but can't open any
doors?



(Piano)

Boy's Weakness

Reading time

A 10-year-old boy decided to study judo despite the fact that he had lost his left arm in a devastating car accident.

The boy began lessons with an old Japanese judo master. The boy was doing well, so he could not understand why, after three months of training the master had taught only one move. "Sensei" the boy finally said, "Shouldn't I learning more moves?" "This is the only move you'll know, but this is the only move you'll ever need to know," the sensei replied.


The boy kept training. Several months later, the sensei took the boy to his first tournament. The boy easily won his first two matches. The third match proved to be more difficult, but after some time, his opponent became impatient and charged; the boy deftly used his one move to win the match. The boy was now in the finals.

This time, his opponent was bigger, stronger, and more experienced. For a while, the boy appeared to be overmatched. Concerned that the boy might get hurt, the referee called a time out. He was about to stop the match when the sensei intervened. "No," sensei insisted, "Let him continue". Soon after the match resumed, his opponent made a critical mistake: he dropped his guard. Instantly, the boy used his move to pin him. The boy had the match and the tournament.

"Sensei, how did I win the tournament with only one move?" asked the boy.

"You won for two reasons," the sensei answered. "First, you have almost mastered one of the most difficult throws in all of judo. And second, the only known defense for that move is for you opponent to grab you left arm".

The boy's biggest weakness had become his biggest strength.



Muhammadsharif FAYZULLAEV

MASLAHAT

– Pol ostida sichqon bor,
Qitir-qitir etadi.
Nima qilsam butunlay,
Uyimizdan ketadi?
Jilmayganicha Toshmat der:
– Qaymoq qo'ygin o'rtaga,
Sozlab ovoz torini,
«Miyov!» laymiz jo'rtaga.

«BEKINMACHOQ»

Halol o'yin –
«Bekinmachoq».
Ammo bor-da,
G'irrom – chatoq.
Akam ko'zin
Chala yopar.
Qayda bo'lmang,
Darrov topar.

Vali AHMADJON,
Farg'ona viloyati,
Bog'dod tumani



O'QILMAGAN KITOBLAR

Tuni bilan to'lg'onar,
Xonam ichra oftoblar.
Ayting, qanday quvonar,
O'qilmagan kitoblar?
Bir-birin suyak turar,
Kun bo'yi xayol surar,
Qo'rqinchli tushlar ko'rar,
O'qilmagan kitoblar.
Turar entikib, titrab,
Javonga yelka tirab,

Varaqлари pirpirab,
O'qilmagan kitoblar.
To'xta, pariroy deydi,
Loqaydlikni qo'y, deydi,
Changim artib qo'y, deydi,
O'qilmagan kitoblar.
Bo'lmasam buncha omi,
Bilmabman do'st-u yovni.
Kechiring, men yalqovni,
O'qilmagan kitoblar.

Bonu ERMATOVA

O'ZBEK TILIM

O'zligimni anglatadi,
O'zbek tilim, o'z tilim.
Burro-burro sayratadi,
O'zbek tilim, o'z tilim.
Qayga borsam men bilandir,
O'zbek tilim, o'z tilim.
Qadrlaydi xalqim seni,
O'zbek tilim, o'z tilim.

Nodira ABDULAZIZOVA,
Toshkent shahar,
Yashnobod tumanidagi
198-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



Mohinur SHERIPBAYEVA,
Qoraqalpog'iston
Respublikasi, Beruniy
shahridagi
63-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

SHAXMAT

Otam o'rgatdi shaxmat,
Zo'r o'yin ekan, rahmat.
Vaqtim o'tmas behuda,
Qiziqib qoldim juda.
So'ng ukamga ko'rsatdim,
O'ynashni ham o'rgatdim.
O'rtada turib otam,
Bo'ldilar odil hakam.
Ranjimasin, deb ukam,
Yutqazib berdim men ham.

SIRLI SUHBAT

Otamdan tug'ilgan
kunimda meni
tog'ga olib
borishlarini so'ragan
edim.

Mana, tog'ga ham
yetib keldik.

Tog'ning yolg'izoyoq yo'llaridan
yuqoriga ko'tarilar ekanman, yon
atrofimdagi qoyatoshlarda qandaydir
ilohiy kuch borligini sezdim. Ular menga
nimanidir so'zlayotgandek, ammo men
hech narsani anglamas edim. Go'yo
qoyatoshlarning so'zlarini tabiat menga
tushuntirmoqchi bo'lar, dastlab, shamol
nimanidir shivirlab o'tardi. So'ng ko'kdagi
bulutlar jonlandi. Shunda o'zimdanda o'z
uyalib ketdim. Tag'in men bu yerlarga
malika bo'lmoqchiman-a... Tabiatning
benazir go'zalligi oldida ip yecholmay
turibman...

Sershovqin soy qo'shig'in,
Yoyib kezar atrofga shamol.
Ohangiga jo'r bo'lib o'ynab,
Yurt bag'rida topaman kamol...

Aygerim ZULFIQOROVA,
Toshkent viloyati, Qibray
tumanidagi
48-umumta'lim maktabi o'quvchisi



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Kelinoyim «yalt» etib menga qaradi.
Tamtumboylar IVning og'zi ochilib qoldi.

– Bor, bor, — dedi hovliqib Matrayim. — Men
bilaman. Undan tashqari, Hamdam bergan boks
qo'lqopi ham bor.

– Hamdam emas, Van Dam, — dedim
g'ururlanib.

– Nima farqi bor? Asosiysi, qo'lqoping bor-ku!
To'g'rimi?

– Qo'lqop nimaga kerak?

Gulposhsha kelinoyimning gapiga tog'am
sharaqlab kulib yubordi.

– Soddasan-da xotin, soddasan. Axir
timsohning lunjiga nima bilan uriladi? Tish nina
bilan qoqib olinadimi? Bundan keyin gapingni
o'ylab gapir.

– Voy, shunga shunchami? Unda rovatka
nimaga kerak?

Tog'am indolmay qoldi. U o'ylamoqda edi.

– U bilan ham tishlar urib tushiriladi-da, —
dedi Matrayim quvonch bilan. — Uzoqdan poylab
otiladi. Tamom. Qarabsizki, tish qo'lingizda.
Tog'amning yuzi yorishib ketdi. — Bildingmi,
xotin, — degandek kelinoyimga qarab qo'yd.

– Ha, aytganday. Kim bilan keldingiz? — deb
so'rab qoldi tog'am.

– Normamat tog'a bilan, — dedim men. —
Ular singillarini ko'rgani qo'shni ko'chaga kirib
ketdilar.

Tog'am yostiqlarining uchini bosgan edilar,
«yalt» etib to'g'ridagi televizor ko'rsata boshladi.

Televizorda chiroyli suxandon paydo bo'ldi. Bu
o'sha muzqaymoq bergan qiz edi. Matrayim
yana angraya boshladi.


Bahrom AKBAROV,
bolalar yozuvchisi

MEN, MATRAYIM va TAMTUMBOY

(Hikoya)

– Donishqish-
loq yangiliklarini
boshlaymiz, —
dedi o'sha qiz
bizga qarab. —
To'raqishloqlik
Normamat tog'a
singillarini
ko'rgani keldilar.
Ekranda
Normamat tog'a
paydo bo'ldi. —
Jo'ralarim,
diydor shirin,
sizlar ham bir-
biringizdan xabar olib turinglar, — dedi
Normamat tog'a bizga qarab.

– Voy, sho'rim, — dedi kelinoyim birdan. —
Qozondagi sho'rva nima bo'ldiykin?
Kelinoyim shoshganicha oshxona tomon yurdi.



Tog'am bizga kulib qaradi-da:

– Yuringlar. Sho'rva suzilguncha bog'in
aylanib kelimiz, — dedi.

Uchalamiz tog'amning ortidan ergashdik.
Qatorlashtirib ekilgan anjirlar orasidan
o'tar ekanmiz, tog'amning didiga qoyil
qoldim. Qora, sariq, nok, anjirlar
qatorlashtirib ekilgan bo'lib, ular orasida
men bilgan shamshod, kiparis, moviy,
yashil archalar barq urib o'sib yotibdi.

Hovlining shimol tomonida
oqqayinlar bargi mayin shitirlaydi.

Bog'ni tomosha qilib ulgurmagani
edik hamki tog'am birdan to'xtab
soatiga qaradi-da:

– Kelinoyingiz sho'rvani suzib
olib kelibdi. Yuringlar, sho'rva sovib
qolmasin, — dedi.

– Qayerdan bildingiz, tog'a? —
dedim ajablanib.

– Mana, soatimga xabar keldi.
Bu mikrotelefon vazifasini ham
bajaradi, — dedi tog'am menga
qarab.

– Rostdanmi? — dedi Matrayim
ajablanib. — Soatingizni boshqa
«hunarlar» ham bordir?

– Hunar emas-u, vazifasi bor. Issiq o'lchaydi,
qon bosimini aniqlaydi, kayfiyatni ko'taradigan
latifalar aytadi. She'r o'qib beradi. Ha, darvoqe.
Mana, Tamtumboylar IV she'riyatda «fikr» janriga
asos solmoqchi.


(Davomi bor)

«QUVNOQ STARTLAR»NING ONLARI

Har safar «bir, ikki, uch!» degan sanoq bilan start oluvchi sport musobaqalarining shinavandalari ko'p. Ayniqsa, har yili yurtimizdagi umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan «Quvnoq startlar» musobaqasining respublika bosqichiga yetib kelib, g'oliblik supasidan o'rin egallashga har bir o'g'il-qiz ishqiboz-u, orzumand. Bu yilgi final

bosqichida ezgu niyatiga yetib maktabi-yu, viloyatining nomini munosib oqlagan farg'onalik o'quvchilar shu kunlarda g'oliblik gashitini surishmoqda.

Mazkur musobaqaning respublika bosqichi Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi chet tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatida o'tkazildi. Dastlabki yarim final bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Farg'ona viloyati jamoalari bellashishdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, mezbon jamoaning qo'li baland kelib, 1-o'rinni Farg'ona viloyati, Toshloq tumanidagi 32-umumta'lim maktabining «Uchqun» jamoasi qo'lga kiritdi. 2-o'rinni esa o'z-o'zidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus tumanidagi 1-umumta'lim maktabining «Akmang'it» jamoasi egalladi. Musobaqada 3-o'ringa Jizzax viloyati, Zarbdor tumanidagi 9-umumta'lim maktabining



«Yoshlik» va Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi 3-umumta'lim maktabining «Chinor» jamoalari loyiq topildi. G'olib va sovrindorlar Xalq ta'limi vazirligi hamda «Yoshlik» jismoniy tarbiya va sport jamiyati markaziy Kengashi tomonidan taqdirladi. Biz ham o'z navbatida, yosh sportchilarimizni g'alaba bilan qutlaymiz! Ulardan «Quvnoq startlar»dan olgan quvonchlari va chempionlik sirlari haqidagi fikr-mulohazalarini kutib qolamiz! Zero, unutmang, gazetamizning sport sahifasi yosh sportchilarimiz-u, sportsevarlarning minbari, aniqrog'i, maydonidir! Qani, bir, ikki, uch — maydonga marhamat!

O'z muxbirimiz



O'ZBEKISTONLIKLAR XALQARO TURNIRDA 2-O'RINDA



Tojikistonda bo'lib o'tgan futbol bo'yicha 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasidagi Markaziy Osiyo davlatlari chempionatida o'zbekistonlik sportchilar 2-o'rinni egallashdi.

Markaziy Osiyo futbol Assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan mazkur «CAFA U-16 Championship-2019» musobaqasida O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Eron va Afg'oniston o'smirlar terma jamoalari o'zaro kuch sinashdi. O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi Turkmaniston, Qirg'iziston va Afg'oniston jamoalarini mag'lub etdi. Tojikistonlik raqiblari bilan durang natijani qayd etgan sportchilarimiz eronlik tengdoshlariga 1:2 hisobda imkoniyatni boy berdi.

Natijalarga ko'ra, turnir mezboni bo'lgan tojikistonlik jamoada 1-, hamyurtlarimiz 2-, Eron terma jamoasiga 3-o'rin nasib etdi.

Yakkasaroy tumanidagi 1-Bolalar va o'smirlar sport maktabida «Mahallamiz stol tennischilari va badmintonchilari» sport musobaqalarining Toshkent shahar bosqichlari o'tkazildi.



MAHALLA SPORTCHILARI SARALANDI

Qator hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tashkil etilgan mazkur musobaqalar mahalla yoshlari orasida milliy va ommaviy sport turlarini targ'ib etish va keng ommalashtirish, ularning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish barobarida iqtidorli sportchilarni kashf etish, mahalla yoshlarida bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatlarni kuchaytirish, uyushmagan yoshlarni bir jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish maqsadida an'anaviy nishonlanib kelmoqda.

«Mahallamiz stol tennischilari» musobaqasining yakuniy natijalariga ko'ra, 11–12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida 1-o'rin Chilonzor tumani, Nafosat mahallasi vakili Nodirbek Xudoyorovga nasib etdi.

Qizlar o'rtasidagi bahslarda Chilonzor tumani 3-Charx Kamolon mahallasi vakili Lola Qahramonjonova 1-o'ringa loyiq topildi. Bektimirlik Shirina Nazarova va yakkasaroylik Yekaterina Yugina 2–3-o'rinlarni egallashdi.

«Mahallamiz badmintonchilari» musobaqasida 13–14 yoshli o'g'il-qizlar o'rtasida Mirobod tumani Inoqobod mahallasi vakili Artyom Barisov hamda Mirobod tumani «Tong yulduzi» mahallasi sportchisi Sevara Isoqova g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Nurbek QIDIRALIYEV

KICKINTOYLAR BELLASHDI

Poytaxtimizning Yashnobod tumanida mo'jazgina bolalar maskani bor. 147-maktabgacha ta'lim muassasasiga tashrif buyurgan borki, ozoda hovli, shinam xonalarni ko'rganda dili yayraydi. Bog'chaga tajribali pedagog Hafiza Hamdamova rahbarlik qiladi.

Bolajonlarning har bir kuni qiziqarli sarguzashtlarga boy bo'lishida barcha tarbiyachi opalar tinmay izlanishadi.

Yaqinda bo'lib o'tgan «Quvnoq startlar» musobaqasida «Yulduzcha», «Kamalak» va «Bilimdon» guruhlari o'zaro bellashdi. Halqa orasidan o'tish, o'mbaloq oshish, belgilangan masofa bo'ylab tezlikda koptokni sherigiga topshirish kabi shartlarda bolajonlar rosa harakat qilishdi. Tezkorlik va chaqqonlikda



boshqa guruhlardan ustun kelgan tarbiyachi Hilola Abdullayeva rahbarlik qilayotgan «Kamalak»chilar 1-o'rinni egalladi. «Bilimdon» guruhi 2-o'rin, 3-o'rin «Yulduzcha» bolalariga nasib etdi.

Jismoniy tarbiya yo'riqchisi Barno Xo'janova faol ishtirokchilarga o'yinchoqlar sovg'a qildi.


BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!



Anogramma so'z o'yin – topishmog'ini diqqatingizga havola etamiz. Anogramma biror so'zning harflarini begona harf qo'shmasdan joy-joyini almashtirib yangi yaxlit so'z hosil qilish demakdir: odob (obod), asar (sara), taksi (istak) va hokazo.

Quyidagi anogramma-krossvord to'rtta blokdan iborat bo'lib, ularni to'rtta anogrammali kalit so'z diagonal bo'lib, uzviy bog'lab turibdi. Katalarni berilgan so'zlarning anogrammasini topib, eniga to'ldiring.

- | | |
|------------------|---------------------|
| 1. Denov (tuman) | 11. Laycha |
| 2. Mahal | 12. Hasan |
| 3. Kamon | 13. Doira |
| 4. Tizza | 14. Nahot |
| 5. Somon | 15. Kamar |
| 6. Savdo | 16. Kotib |
| 7. Nanay (xalq) | 17. Zafar |
| 8. Nimta | 18. Qo'qon (shahar) |
| 9. Taroq | 19. Idora |
| 10. Mushuk | 20. Qalay |



Negmurod
GULIYEV



Qancha muddatda?

Nonushta qilgach Soli,
Olib daftar, kitobni.
Maktab sari yo'ldi,
Bo'shashtirmay shitobni.
Yetti daqiqa o'tgach,
Akasi Asilbek ham,
Bilim o'chog'i tomon,
Tashladi shaxdam qadam.
To'ng'ichi kichigidan,
Ikki karra tez yurar.
Qancha muddatda og'a,
Inisin quvib yetar?! (Javob: 24 ta)



Shaftolilar nechta?

Savat to'la ne'matdan,
Yarmin Azalshoh oldi.
Qolgan meva choragin,
Esh chelagiga soldi.
Shundan so'ng sanab boqsa,
To'qqizta luchchak qolgan.
Biling, dastlab idishda,
Nechta shaftoli bo'lgan?! (Javob: 24 ta)



Dastlabki son

Abdulxoliq bir sonni,
Avval bo'lib sakkizga.
Natijani oshirdi,
So'ng yana qirq to'qqizga.
Hisob-kitob oxiri,
Teng bo'lib qoldi yuzga.
O'sha dastlabki sonni,
Aniqlab, ayting bizga. (Javob: 408)



Bog'da

Mevalar g'arq pishgan choq,
Fayzga to'lar so'lim bog'.
Yig'im-terim avjida,
Yordamga shoshil, o'rtoq.
Vali qirq olma uzdi,
Ali terdi uchta ko'p.
Ikkisini jamlasak,
Nechta bo'lar, top-chi, xo'p? (Javob: 83 ta)

